



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **34,4** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **3,0** mingtaga kamaygan yoki **7,8 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 10,6 birlikni tashkil qildi.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning yanvar-iyunida **4,0** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **11,3 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni (*birlikda*) va ulushi, foizda

2020-2024-yillar 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-yil		2024-yil
10 243	Samarqand sh.	9 983
1 266	Kattaqo'rg'on sh.	1 182
1 669	Oqdaryo	1 470
1 600	Bulung'ur	1 450
1 619	Jomboy	1 400
1 955	Ishtixon	1 640
1 979	Kattaqo'rg'on t.	1 692
897	Qo'shrabot	894
1 293	Narpay	1 171
1 865	Payariq	1 664
2 866	Pastdarg'om	2 483
1 084	Paxtachi	991
3 028	Samarqand t.	3 071
1 222	Nurobod	1 060
2 936	Urgut	2 596
1 746	Toyloq	1 600

2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **34 347** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 935** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida **9 983** tani yoki jamiga nisbatan **29,1** % ni, Samarqand tumanida **3 071** tani yoki jamiga nisbatan **8,9** % ni, Urgut tumanida **2 596** tani yoki jamiga nisbatan **7,6** % ni Pastdarg'om tumanida **2 483** tani yoki jamiga nisbatan **7,2** % ni tashkil etdi.


2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Samarqand sh.	17,0
Kattaqo‘rg‘on sh.	12,4
Oqdaryo	11,1
Bulung‘ur	12,4
Jomboy	10,7
Ishtixon	9,0
Kattaqo‘rg‘on t.	9,0
Qo‘srbabot	10,4
Narpay	7,1
Payariq	10,5
Pastdarg‘om	7,7
Paxtachi	9,4
Samarqand t.	13,4
Nurobod	10,9
Urgut	7,3
Toyloq	10,0



Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2024-yil 1-iyul holatiga, birlikda



2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan **10,6** birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan **1,1** birlikka pasaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko‘rsatkich Samarqand shahrida **17,0** birlik, Samarqand tumanida **13,4** birlik, Bulung‘ur tumanida **12,4** birlik, Kattaqo‘rg‘on shahrida **12,4** birlik va Nurobod tumanida **10,9** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo’shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Samarqand shahar
17,0 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Ishtixon tumani
9,0 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Narpay tumani
7,1 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **17,0** birlik, Samarqand tumanida **13,4** birlik, Bulung'ur tumanida **12,4** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **12,4** birlik, Oqdaryo tumanida **10,6** birlik, Jomboy tumanida **10,7** birlik, Nurobod tumanida **10,9** birlik, Payariq tumanida **10,5** birlik, Qo'shrabot tumanida **10,4** birlik, Toyloq tumanida **10,0** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Samarqand shahar

17,0

Bulung'ur tumani

12,4

Nurobod tumani

12,4

10,9

Samarqand tumani

Kattaqo'rg'on shahar

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023-yil

2024-yil

942	Samarqand sh.	936
148	Kattaqo‘rg‘on sh.	120
250	Oqdaryo	137
269	Bulung‘ur	183
197	Jomboy	137
236	Ishtixon	152
246	Kattaqo‘rg‘on t.	239
126	Qo‘schrabot	103
153	Narpay	122
232	Payariq	145
416	Pastdarg‘om	309
160	Paxtachi	133
362	Samarqand t.	682
174	Nurobod	142
298	Urgut	195
229	Toyloq	200

2024-yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, foizda




2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Samarqand shahri **23,8** %, Samarqand tumani **17,3** %, Pastdarg‘om tumani **7,9** %, Kattaqo‘rg‘on tumani **6,1** %, Toyloq tumani **5,1** %, Urgut tumani **5,0** %, Bulung‘ur tumani **4,7** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 408** ta, sanoatda **679** ta hamda qishloq, da **487** ta yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Samarqand shahrida **936** ta, Samarqand tumanida **682** ta, Pastdarg‘om tumanida **309** ta, hamda Kattaqo‘rg‘on tumanida **239** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **24 317** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **10 109** (yoki **41,6** %) ta, xizmatlar sohasida **6 170** (yoki **24,4** %) ta, sanoat sohasida **4 776** (yoki **19,6** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **2 468** (yoki **10,1** %) ta va qurilish sohasida **788** (yoki **3,2** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, foizda




■ 2023-y. ■ 2024-y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagи ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), foizda

2024-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,8 %** ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **0,2** punktga ko‘paygan. Ko‘payishining asosiy sababi, kichik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, foizda





2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi aylanmasida **97,0 %** ni, yo‘lovchi tashishda **94,0 %** ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **94,6 %** ni, yuk aylanmasida **85,9 %** ni, qurilishda **84,8 %**, chakana savdoda **85,2 %** ni, tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati





2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m

Samarqand sh.	2 209,6
Urgut	1 197,6
Samarqand t.	892,2
Jomboy	874,0
Kattaqo‘rg‘on sh.	427,0
Toyloq	624,9
Bulung‘ur	506,4
Payariq	431,9
Oqdaryo	414,7
Pastdarg‘om	397,9
Narpay	273,6
Kattaqo‘rg‘on t.	263,0
Nurobod	232,7
Ishtixon	170,3
Qo‘schrabot	88,3
Paxtachi	83,0

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 087,1** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (**2 209,6** mlrd. so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (**427,0** mlrd. so‘m), Urgut (**1 197,6** mlrd. so‘m), Jomboy (**874,0** mlrd. so‘m), Samarqand (**892,2** mlrd. so‘m), Toyloq (**624,9** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Paxtachi tumani (**83,0** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2024-yil yanvar-iyunda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **48,8 %** ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-iyuni hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo (**100,0 %**), Bulung‘ur (**99,8 %**), Payariq (**97,5 %**), Nurobod (**96,0 %**) va Qo‘shrabot (**94,7 %**) tumanlari Kattaqo‘rg‘on shahri (**98,4 %**), Urgut tumani (**82,9 %**), Samarqand tumani (**67,0 %**), Pastdarg‘om tumani (**65,3 %**), Narpay tumani (**56,1 %**), Toyloq tumani (**51,3 %**), Jomboy tumani (**47,3 %**), Ishtixon tumani (**31,2 %**) va Paxtachi tumani (**14,3 %**) ni tashkil etdi.

Oqdaryo	100,0
Bulung‘ur	99,8
Kattaqo‘rg‘on sh.	98,4
Payariq	97,5
Nurobod	96,0
Qo‘shrabot	94,7
Urgut	82,9
Samarqand t.	67,0
Pastdarg‘om	65,2
Narpay	56,1
Toyloq	51,3
Jomboy	47,3
Ishtixon	31,5
Samarqand sh.	29,6
Kattaqo‘rg‘on t.	28,6
Paxtachi	14,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Kattaqo'rg'on sh.	122,5	100,0
Kattaqo'rg'on t.	289,1	97,8
Ishtixon	122,2	96,6
Jomboy	161,9	96,1
Narpay	62,6	95,8
Samarqand sh.	1 853,5	95,7
Paxtachi	77,1	94,2
Payariq	637,6	94,1
Bulung'ur	107,5	92,6
Urgut	123,2	91,2
Oqdaryo	241,5	89,7
Nurobod	52,1	87,8
Samarqand t.	127,7	76,4
Qo'shrabot	73,8	57,0
Pastdarg'om	185,2	48,4
Toyloq	74,6	21,4


hajmi, mlrd. so'mda ↑
ulushi, % da ↑

2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 312,2** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,8** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**1 853,5** mlrd. so'm), Payariq (**637,6** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**289,1** mlrd. so'm), Oqdaryo (**241,5** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**185,2** mlrd. so'm), Jomboy (**161,9** mlrd. so'm), Samarqand (**127,7** mlrd. so'm), Urgut (**123,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **6 885,1** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **45,1 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **87,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**810,9** mlrd. so'm), Payariq (**172,4** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**374,9** mlrd. so'm), Jomboy (**884,9** mlrd. so'm), Samarqand (**991,7** mlrd. so'm), Qo'shrabot (**168,6** mlrd. so'm), Narpay (**317,3** mlrd. so'm) va Paxtachi (**240,3** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi


Jomboy	884,9	93,8
Samarqand t.	991,7	93,6
Oqdaryo	288,0	93,6
Nurobod	636,8	88,6
Kattaqo'rg'on t.	663,8	88,4
Bulung'ur	341,8	87,6
Narpay	317,3	86,6
Urgut	467,2	85,6
Ishtixon	248,1	76,8
Paxtachi	240,3	75,5
Toyloq	201,6	66,7
Kattaqo'rg'on sh.	76,6	62,6
Pastdarg'om	374,9	43,1
Qo'shrabot	168,6	37,9
Payariq	172,4	22,6
Samarqand sh.	810,9	11,5

hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtrilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **17 303,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **94,6** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **110,7** % ni tashkil qildi.

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p yetishtrilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Toyloq (**10 14,4** mlrd. so‘m), Samarqand (**775,1** mlrd. so‘m), Jomboy (**977,4** mlrd. so‘m), Pastdarg‘om (**1 849,8** mlrd. so‘m), Payariq (**1 602,3** mlrd. so‘m), Bulung‘ur (**1 493,1** mlrd. so‘m), Ishtixon (**1 410,6** mlrd. so‘m), tumanlarida qayd etildi.


2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtrilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Toyloq	1 014,4	72,3
Samarqand t.	775,1	76,5
Jomboy	977,4	81,9
Samarqand sh.	106,4	91,0
Oqdaryo	1 150,1	95,2
Ishtixon	1 410,6	99,1
Bulung‘ur	1 493,1	99,1
Kattaqo‘rg‘on t.	1 453,7	99,2
Payariq	1 602,3	99,3
Nurobod	865,9	99,4
Narpay	818,0	99,4
Pastdarg‘om	1 849,8	99,5
Paxtachi	1 079,0	99,5
Qo‘shrabot	725,8	99,9
Urgut	1 889,6	99,9
Kattaqo‘rg‘on sh.	92,7	99,9

hajmi, mlrd. so‘mda

ulushi, % da

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11 839,5** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **85,2 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **80,7 %** ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Kattaqo‘rg‘on sh.	564,9	99,9
Narpay	695,8	99,5
Ishtixon	533,0	99,3
Jomboy	491,1	99,2
Oqdaryo	333,5	99,1
Payariq	421,9	99,0
Qo’shrabot	270,4	99,0
Paxtachi	250,2	98,9
Nurobod	213,8	98,8
Bulung‘ur	873,9	98,0
Urgut	1 334,5	98,0
Toyloq	391,4	97,6
Pastdarg‘om	446,0	95,9
Kattaqo‘rg‘on t.	495,0	94,0
Samarqand sh.	3 433,1	70,6
Samarqand t.	1 090,9	69,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (**3 433,1** mlrd. so‘m), Urgut (**1 334,5** mlrd. so‘m), Samarqand (**1 090,9** mlrd. so‘m), Bulung‘ur (**873,9** mlrd. so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (**564,9** mlrd. so‘m), Narpay (**695,8** mlrd. so‘m) Kattaqo‘rg‘on (**495,0** mlrd. so‘m) va Pastdarg‘om (**446,0** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m



hajmi, mld. so‘mda
ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda


Samarqand sh.	3 513,2
Samarqand t.	809,7
Pastdarg‘om	742,7
Urgut	707,6
Jomboy	530,1
Toyloq	479,3
Kattaqo‘rg‘on t.	465,1
Payariq	444,8
Ishtixon	441,3
Oqdaryo	439,9
Narpay	406,2
Bulung‘ur	318,2
Kattaqo‘rg‘on sh.	289,3
Qo‘shrabot	247,0
Paxtachi	236,7
Nurobod	233,9

2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **10 305,0** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,3 %** ni tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **122,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**3 513,2** mlrd. so‘m), Samarqand (**809,7** mlrd. so‘m), Pastdarg‘om (**742,7** mlrd. so‘m), Urgut (**707,6** mlrd. so‘m), Jomboy (**530,1** mlrd. so‘m), Toyloq (**479,3** mlrd. so‘m) va Kattaqo‘rg‘on (**465,1** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida **35,4 %** (**3 643,4** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida **31,1 %** (**3 202,8** mlrd. so‘m), shaxsiy xizmatlarda **7,0 %** (**720,7** mlrd. so‘m) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **5,6 %** (**573,6** mlrd. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,6 %** (**58,5** mlrd. so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Payariq	6,2	100,0
Qo'shrabot	1,4	100,0
Bulung'ur	6,7	100,0
Oqdaryo	12,0	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	15,8	100,0
Kattaqo'rg'on t.	3,2	98,6
Nurobod	0,4	86,2
Urgut	19,9	80,2
Samarqand t.	22,9	48,2
Narpay	3,8	45,1
Ishtixon	3,2	45,0
Pastdarg'om	2,1	44,8
Jomboy	11,4	30,3
Toyloq	2,5	26,8
Samarqand sh.	20,6	12,4
Paxtachi	0,3	4,0

hajmi, mln. AQSh dollar


ulushi, % da

2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **141,5** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **38,5** % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **377,8** million AQSh dollarini yoki jami importning **35,8 %** ni tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, foizda



2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahri, Bulung'ur, Qo'shrabot Payariq, Paxtachi va tumanlarida **100,0 %**, Ishtixon tumanida **99,6 %**, Oqdaryo tumanida **98,8 %**, Urgut tumanida **96,5 %**, Naripay tumanida **93,1 %**, Samarqand tumanida **84,9 %**, hamda Kattaqo'rg'on tumanida **82,0 %** ni tashkil etdi.


Kattaqo'rg'on sh.	100,0
Bulung'ur	100,0
Qo'shrabot	100,0
Payariq	100,0
Paxtachi	100,0
Ishtixon	99,6
Oqdaryo	98,8
Urgut	96,5
Naripay	93,1
Samarqand t.	84,9
Kattaqo'rg'on t.	82,0
Pastdarg'om	67,9
Toyloq	55,6
Nurobod	34,2
Jomboy	31,3
Samarqand sh.	19,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




88,7 %

**Yuk
tashishda**



85,9 %

**Yuk
aylanmasida**



94,0 %

**Yo'lovchi
tashishda**



97,0 %

**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,7** % ni tashkil etdi.

2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,4** % ni tashkil qildi.


2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **85,9** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **110,2** % ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,0** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,7** % ni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,0** % ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,7** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024-yil II chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1 916** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **795 (41,5 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **990 (51,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **131 (6,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda **46,2 % (916 ta)**, xizmatlar sohasida **30,0 % (575 ta)**, sanoatda **14,5 % (278 ta)**, qurilishda **5,4 % (104 ta)**, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **3,9 % (74 ta)**ni tashkil etdi.

2024-yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

644	Samarqand sh.	32,7
71	Kattaqo‘rg‘on sh.	3,6
65	Oqdaryo	3,3
83	Bulung‘ur	4,2
75	Jomboy	3,8
83	Ishtixon	4,2
80	Kattaqo‘rg‘on t.	4,1
44	Qo‘shrabot	2,2
74	Narpay	3,8
82	Payariq	4,2
127	Pastdarg‘om	6,4
59	Paxtachi	3,0
176	Samarqand t.	8,9
55	Nurobod	2,8
111	Urgut	5,6
87	Toyloq	4,4


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (**644** ta), Samarqand (**176** ta), Urgut (**111** ta), Pastdarg‘om (**127** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning II choragida **509** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragiga kelib esa **795** taga yetgan yoki 2019-yilning II choragiga nisbatan **286** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **622** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-iyunida **990** ta yoki **368** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **75** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **131** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **56** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragida umumiyl
iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan),
birlik**



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning II choragida **854** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning II choragiiga kelib esa **1 013** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **159** taga ko‘paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning II choragida **325** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning II choragida **832** ta yoki **507** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019-yilning II choragida **27** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning II choragiiga kelib, bu ko‘rsatkich **71** tani tashkil etib, 44 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning II choragida **70,8 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **41,5 %** ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **29,3 %** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **51,6 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragida **51,7 %** yoki **0,1 %** birlikka ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **6,2 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich **6,8 %** ga yetgan yoki **0,6 %** ga ko'paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning II choragida **41,3 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **33,5 %** ga yetgan yoki 2019-yilning II choragiga nisbatan **7,8 %** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2019-yilning II choragida **52,1 %** bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning yanvar-iyunida **56,9 %** yoki **4,8 %** birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019-yilning II choragida **6,6 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **9,6 %** yoki **3,0 %** birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda **45,2 %** ni, xizmatda sohasida **41,6 %** ni, sanoatda **35,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **60,8 %** ni, xizmatlar sohasida **51,3 %**, sanoatda **56,8 %** ni, qurilish **55,8 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda **11,5 %**, sanoatda **7,6 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **8,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda **61,8** % ni, xizmatlar sohasida **61,2** % ni, savdoda **59,9** % ni va qurilishda **58,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **40,2** % ni, savdoda **38,0** % ni va xizmatlar sohasida **35,6** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda **5,9** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4,9** % ni hamda sanoatda **3,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda

	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	47,5	42,8	9,7

Band bo‘lganlar soni	29,0	64,7	6,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	37,8	56,8	5,4
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	30,8	63,9	5,3
Raqobat muhiti	44,6	52,1	3,3


	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	55,2	47,9	4,4

Band bo‘lganlar soni	36,6	67,6	3,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	39,3	65,1	4,0
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	37,0	68,0	3,9
Raqobat muhiti	48,4	57,7	2,8

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, foizda**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

**2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin
3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, foizda**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli